

**VATANGA OID MAQOLLARNING NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA LEKSIK
- KOLLEGIK VA QIYOSIY TAHLILI****Bozorova Gulmira Maxamadaliyevna***Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va slavyan tillari fakulteti**Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi***Babaxonova Baxoroy Nodirjon qizi***Filiologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) 24-01-guruh
talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada Vatanga oid maqollarning nemis va o'zbek tillaridagi leksik kollegial, qiyosiy tahlili olib borilgan bo'lib, bunda ikki til va madaniyatdagi Vatanga bo'lgan munosabatlar, qadriyatlar va urf-odatlar haqida ma'lumot beriladi*

Kalit so'zlar: *maqol, leksik, kollegik, tahlil, madaniyat, leksik birlik, emotsional yuk, madaniy farqlar*

Annotation: *This article presents a lexical, collocational and comparative analysis of homeland-related proverbs in German and Uzbek, providing information about the relationships, values, and customs related to the homeland in both languages and cultures*

Key words: *proverb, lexical collocational analysis, culture, lexical units, emotional charge, cultural differences.*

Аннотация: *В данной статье представлен лексический, коллокационный и сравнительный анализ пословиц, связанных с Родиной, на немецком и узбекском языках, в который предоставляется информация о взаимоотношениях, ценностях и обычаях, связанных с родиной, в обеих языках и культурах.*

Ключевые слова: *пословица, лексический коллокационный анализ, культура, лексические единицы, эмоциональная нагрузка, культурные различия*

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmuniga ega bo'lgan bir janridir.

Maqol – xalq og'zaki ijodining bir turi bo'lib, qisqa mazmunli iboralar orqali hayot tajribasini ifodalaydi. Ular odatda ta'lim beruvchi, saboq oluvchi ma'noga ega bo'ladi va ko'pincha keng tarqalgan hikmatlar yoki naqlar sifatida ishlatiladi. Misol uchun, "Oltin olma, duo ol" yoki "Sabr qilgan – sadoqat topadi" kabi maqollar hayotdagi muhim qadriyatlarni aks ettiradi.

Vatanga oid maqollar har bir xalqning madaniyati va dunyoqarashini ifodalaydi. Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida vatanga oid maqollarning leksik kollegik va qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Bu orqali har ikki xalqning Vatanga bo'lgan munosabati, ularning qadriyatlari va hayotiy tajribalari o'rganiladi.

Leksik kollegik tahlil – biror soha yoki mavzudagi leksik birlikni taqqoslash va ularning ma'nolari, foydalanish kontekstlari va kulturologik ahamiyatlarini aniqlash jarayonidir.

Nemis va o‘zbek tillaridagi vatanga oid maqollarni tahlil qilish jarayonida quyidagi misollarni keltirish mumkin:

O‘zbek tilidagi maqol: Vatan -ona, ona-Vatan.

Nemis tilidagi maqol: Die Heimat ist wie die Mutter.

Bu maqollar birinchidan, Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatni ona bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi, ikkinchidan, ularning leksik tarkibida „Vatan“ va „Heimat“ so‘zlarining emotsional yukini ko‘rish mumkin.

Vatanni sotgan er bo'lmas.

Vatanning vayronasi — Umrning g'amxonasi.

Vatanning vayronasi — Umrning hayronasi.

Vatansiz inson — kuysiz bulbul.

Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.

Dushmanga nafrati bo'lmaganning, Vatanga muhabbati bo'lmas.

Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma.

Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Bu kabi maqollar vatanning ahamiyatini va uning inson hayotidagi o‘rnini ta’kidlaydi.

„Heimat ist dort, wo man sich wohl fuhlt“.- Nemis tilidagi bu maqol esa so‘zma – so‘z tarjimada „Vatan bu – o‘zingizni qulay his qiladigan joy“ shaklida tarjima qilinadi. Lekin bu maqolning o‘zbek tilida bir qancha ekvivalentlarini uchratish mumkin:

Kishi yerida sulton bo'lguncha,
O'z elingda cho'pon bo'l.

Kishi yurtida sulton bo'lguncha,
O'z yurtingda ulton bo'l.

Kishi yurtida shoh bo'lguncha,
O'z yurtingda gado bo'l.

Ko'rpang qayerda bo'lsa, Ko'ngling shu yerda.

“Ein Land, ein Volk”. “Bir mamlakat, bir xalq”. Bu maqol birlik va Vatanparvarlikni ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil orqali nemis va o‘zbek tillaridagi maqollarni o‘zaro solishtirish mumkin. Bu jarayon quyidagicha bo‘lishi mumkin:

___ Maqollardagi mavzular; o‘zbek maqollarida vatan va ona motivlari ko‘proq mavjud, bu xalqning an‘nalariga va qadriyatlariga bog‘liq.

Nemis maqollarida esa shaxsiy his tuyg‘ular va birlikka e‘tibor beriladi.

___ Emotsional yuk: o‘zbek maqollarida kuchli emotsional yuk bor, vatanni ona bilan tenglashtirish orqali chuqur his tuyg‘ularni ifodalaydi.

Nemis maqollarida esa ko‘proq ratsional yondashuv va umumiy tushunchalar mavjud.

___ Madaniy kontekst: O‘zbek maqollarida milliy identitet va madaniyatni saqlash muhim o‘rin tutadi.

Nemis maqollarida esa individ va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘proq aks ettiriladi.

Ma‘nodagi o‘xshashliklar: Har ikki tilda ham vatanga oid maqollar milliy birlashuv, muqaddaslik va u bilan bog‘liq his tuyg‘ularni aks ettiradi.

Madaniy farqlar: Har bir tilning o‘ziga xos madaniy konteksti bor. O‘zbek tilidagi maqollar ko‘proq oilaviy va jamoaviy ahamiyatga ega, nemis maqollarida esa individning mas‘uliyati va erkinligi ko‘proq ta‘kidlanadi. Bu o‘zaro munosabatda xalqning tarixiy va madaniy xususiyatlari aks etadi.

Man weiß nicht, was man an der Heimat hat, bis man in die Ferne kommt.

.Wo es dir gut geht, dort ist Heimat.

Die ganze Welt ist Heimat, wenn du in deinem Herzen wohnst.

Heimat ist da, wo wir verstehen und verstanden werden.

Wo der Has‘ auf die Welt kommt, da bleibt er.

Ohne Heimat sein, heißt leiden.

Heimat ist da, wo man sich nicht erklären muss.

O‘z yurtningning qadri

O‘zga yurtda bilinar

Baliq suv bilan tirik,

Odam — el bilan.

Begona tuproq — devona tuproq.

Betkay ketar, bel qolar,

Beklar ketar, el qolar.

Birovning yurtida bek bo‘lguncha,

O‘zingning yurtida it bo‘l.

Bulbul chamanni sevar,

Odam — Vatanni.

Bulbulga bog‘ yaxshi,

Kaklikka — tog‘.

Vatan gadosi — kafan gadosi.

Vatanga kelgan — imonga kelar.

Vatangado bo'lguncha,
Kafangado bo'l.

Vatandan yiroqlashgan — nomusdan o'lar.

Vataning tinch — sen tinch.

Vatanni sotgan er bo'lmas.

Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.

Dushmanga nafrati bo'lmaganning Vatanga muhabbati bo'lmas.

Xulosa:

Nemis va o'zbek tillaridagi Vatanga oid maqollarni leksik kollegik va qiyosiy tahlil qilish orqali Vatan tushunchasining turli madaniyatlarda qanday farqlanayotgani va o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Har ikkala xalqning Vatanga bo'lgan munosabatini, qadriyatlarini va madaniy farqlarini ochib beradi. Ushbu maqolalar orqali, nafaqat leksik birliklar, balki ularning arxetiplari va ijtimoiy ahamiyati ham aniqlanadi. Bu tahlil, o'zaro madaniy aloqalarni mustahkamlash va til o'rganishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek xalq maqollari ----- Toshkent ----- 2019 y
2. H.Vamberi "Chig'atoy tili darsligi"
3. Markayev K., Maxmudov N., Xamrayev D. Sprichworter / Maqollar T.Meriyus, 2003
4. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. Innovations in Technology and Science Education, 3(19), 135-139.
5. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.
6. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

7. Isamutdinova, Durdona. "COMPARISONS AS REFLECTIONS OF HUMAN CULTURE AND THOUGHT." *Innovations in Technology and Science Education* 3.20 (2024): 194-198
8. Маджидова, Р. У. (2019). Антропоцентризм и аксиологическая картина мира. *Наука, техника и образование*, (6 (59)), 67-71.
9. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
10. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 20-20.
11. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. *RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(15), 234-240.
12. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. *Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.
13. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(5), 152-156.
14. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 8(8), 176-181.
15. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(3), 129-132.
16. Azamov, O. (2023). ZOOFRAZEMALARNI NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH TAMOYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 100-106.